

**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MA'NAVIY BARKAMOL SHAXSNI  
SHAKLLANTIRISHDA TA'LIMGA PSIXOLOGIK YONDOSHUVLAR**

**Qarshiboyeva Lobar Baxramovna**

*Sirdaryo viloyati, Yangiyer shaxar 7-maktab amaliyotchi psixologи*

**Fayzullayeva Xolida Axmadjon qizi,**

*Guliston Davlat Universiteti magistranti.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirishda ta'limga psixologik yondoshuvlar masalalari ko'rilgan.*

**Tayanch tushunchalar:** *Tendensiya, o'quv vaziyatlari, ta'lif konsepsiysi, o'quv va ta'lif faoliyati, motivlar*

Ta'lif muammolarini to'g'ri hal etish, o'qish ma'lum darajada majburiy xususiyatga egaligi va asosiy maqsad yo'lida engib o'tish kerak bo'lgan to'siq sifatida namoyon bo'lishi bilan ham bog'liq. Bu vaziyat uchun qarshi kurashuvchi kuchlarning mavjudligi xosdir. Umuman olganda, bu ziddiyatli holat hisoblanadi, shuning uchun u katta psixik zo'riqish bilan bog'liq ichki kuchni hamda individning o'z-o'zi bilan kurashishini talab qiladi. Ziddiyat keskin bo'lganda «vaziyatdan chiqish» tendensiyasi (inkor, qiyinchilikni chetlab o'tish, nevroz) Yuzaga keladi. Unda o'quvchi o'qishni tashlaydi yoki «o'zini tutolmay qoladi» – qoidalarni buzadi, loqaydlikka tushadi. Shunga o'xshash holat maktab amaliyotida ko'p uchraydi.

Ta'lifdagagi muvaffaqiyatli vaziyat - insonni o'qishga undovchi vaziyatdir. Bunga fanlarga qiziqish, qiziquvchanlik, madaniy darajani oshirishga intilish misol bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bunday motivli vaziyatlar ichki ziddiyatlarga ega bo'lmaydi. Albatta, ular, shuningdek, o'qish davomida uchrovchi qiyinchiliklarni yengish bilan bog'liq va iroda kuchini talab qiladi. Lekin bu kuchlar o'z-o'zi bilan kurashga emas, tashqi to'siqlarni engishga yo'naltirilgan. Bunday vaziyatlar pedagogika nuqtai nazaridan optimaldir. Ularni yaratish pedagogikaning muhim vazifasidir. Ular o'quvchining xulqini boshqarishni emas, balki uni tarbiyalashni, uning maqsad, qiziqish va idealini shakllantirishni talab qiladi.

O'quv vaziyatlari, ta'lif konsepsiysi, o'quv va ta'lif faoliyati, motivlari hamda o'quv manbalari turli-tuman bo'lsa-da, barchasi qandaydir umumiylikka ega. Ularning pirovard maqsadi – o'quvchining kuchini nimanidir o'rganishga yo'naltirish. Agar o'quv maqsadiga yo'naltirilgan harakatning o'zi bo'lmasa, unda o'qishning o'zi ham bo'lmaydi. Har qanday maqsadli o'rganishning mazkur universal komponenti yodlab olish deb ataladi.

Psixologik tajribalar shuni ko'rsatadiki, inson bir vaqtning o'zida ob'ektlarning chegaralangan doirasini (taxminan 5-9) qabul qilishga qodir. Qolgan barchasi umumiylar xira fon sifatida aks etadi yoki umuman anglanmaydi. Ma'lum bir ma'lumotni tanlash, qayta ishlash va foydalanishda inson shaxsining namoyon

bo'lishini psixologlar ko'rsatma deb ataydilar. Shunday qilib, o'qishga e'tibor va ko'rsatma – o'quvchilarda psixik va amaliy yo'naltiril-ganlikning (natijalarga, maqsadga va o'qish jarayoniga) tashqi ifodasidir.

O'quv materialni o'rganishning tashqi omillariga quyidagilar kiradi: o'quv materialining mazmuni, shakli, qiyinchiligi, ahamiyati, anglanish darajasi, tuzilishi, hajmi, emosional xususiyatlari.

Agar o'quv materiali asosiy dastlabki sabab, ichki ko'rsatma esa shart-sharoit bo'lib xizmat qilsa, qaytarish va mashq qilish o'rganishning asosiy vositasi bo'lib hisoblanadi. Ular o'zlashtirilgan materialni mustahkamlash, yodda saqlash, vazifani, uni bajarishning usul va rejalarini rejalashtirish, vazifani bajarishda og'zaki o'z-o'ziga tushuntirish, xatolar, ularning sabablari va to'g'rilash usullarining tahlili va boshqalar uchun kerak.

Inson harakat va faoliyatni ongli yoki ongsiz ravishda amalga oshiradi. Odatda, harakatlarning yakuniy maqsadi hamda ularning umumiyligini xususiyatlari anglanadi. Bir tarafdan insonning hech bir harakati oxirigacha avtomatlashgan bo'lishi mumkin emas (ya'ni ongdan chiqarib tashlangan), negaki u oxir oqibatda angangan maqsad tufayli paydo bo'ladi va boshqariladi. Boshqa tomonidan, insonning har qanday harakati sezilarli darajada ong ishtirokisiz amalga oshuvchi, turli faoliyatni bajarishni osonlashtiruvchi ko'nikmalar tufayli qisman avtomatlashadi. Harakatlarning alohida tomonlarining avtomatlashishi ularning tuzilishini o'zgartiradi va mukammallashtiradi.

Bilimlar shakllanishida har xil faoliyat turlarining roli turlicha bo'ladi. Masalan, predmetli faoliyat (manipulyasiyalash va qayta joylashish) narsa va hodisalarning xususiyatlarni «namoyon etish» uchun, perceptiv faoliyat (qabul qilish va kuzatish) – xususiyatlarning inson idroki va tasavvurlarida aks etishi uchun, tafakkur faoliyati (analiz va sintez) – xususiyatlarni taqqoslash va ular orasidan umumiylarini ajratish uchun, nutqiy faoliyat (ifodalash va nomlash) – mazkur umumiyligini xususiyatlarni predmet-lardan mavhumlashtirib va tur belgilari sifatida umumlashtirib mustahkamlash uchun kerak.

Inson tafakkuri faoliyatda shakllanadi. Shuning uchun o'quv amaliyoti oldida o'quvchilarni aqliy faoliyat usullarining o'ziga o'rgatish vazifasi qo'yiladi. Bu bilan bog'liq ravishda o'rganish bir vaqtning o'zida bilimning to'planishi va undan foydalananish usullarini o'zlashtirish jarayoni sifatida tavsiflanadi.

Usullarni o'zlashtirish, birinchidan, o'quvchilarning ular bilan tanishuvi orqali, ikkinchidan, mashqlar – turli materiallarda aqliy faoliyatning mos keluvchi usullarini qo'llash orqali, uchinchidan, ko'chish – yangi masalalarni hal etish uchun usullarni tatbiq etish orqali ro'y beradi.

Insonga hali yechilmagan masalalarni hal etish imkonini beruvchi bilish jarayonlari ijodiy tafakkur deb ataladi. Uning shakllari va tuzilishi hozircha noma'lum. «Oydinlashish», «ilhom» kabi so'zlar ijodiy tafakkurning birinchi bosqichida hali insonda shakllanmagan tushuncha va mantiqiy operasiyalar

shaklida sodir bo'ladigan faktlarni tavsiflaydi, xolos. Bu so'zlar, shuningdek, ijodiy tafakkur natijasi faqat ma'lum tasavvur, tushuncha va operasiyalarni qo'llash emasligini, balki yangi obrazlar, tushun-chalarni hal etishning yangi usullarini yaratishni ham bildiradi. Shunday qilib, ijodiy tafakkur ko'p jihatdan ijodiy tasavvurga yaqinlashadi va hatto uyg'unlashadi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Nishonova E.T. Bolalar psixik taraqqiyoti muammolari bo'yicha psixologik maslahatlar berish. T., 1997.
2. Pedagogika tarixidan xrestomatiya O.Xasanbaeva. T., 1992.
3. Qodirov B.R. Sinf zukkolarini tanlash metodikasi (Yosh iste'dodlarini izlaymiz): Metodik qo'llanma. T., 1998.
4. G'oziev E.G'. Umumiyl psixologiya: darslik. I, II kitob. T., 2002.
5. O'zbekiston pedagogikasi antologiyasi (Tuzuv.-mual. K.Hoshimov, S.Ochil. T., 1995.

